

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI TABIIY YAYLOV
O'SIMLIKHLARI HOSILDORLIGINI OSHIRISH

F. Sh.Xudoyberdiyev

“Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrasi dotsenti

Muxamadov Qamoriddin Muxtor o'g'li, Bobojonov Saidjon O'tkirovich

Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistrleri

Nazarov Ibrohim Hasan o'g'li

“Yer kadastro va yerdan foydalanish” ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi yer fondining asosiy qismi hisoblangan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, jumladan yaylov yerlarning bugungi holati, foydalanish samaradorligi va yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье описывается текущее состояние, использование и улучшение использования пастбищ, которые составляют основную часть земельного фонда Республики Узбекистан, включая сельскохозяйственные земли.

Annotation: This article describes the current state, use and improvement of pasture use, which constitute the bulk of the land fund of the Republic of Uzbekistan, including agricultural land.

Kirish. So'nggi yillarda Respublikamizda yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, yer munosabatlarini tartibga solish, yerlardan foydalanishda davlat nazoratini kuchaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, yerlardan foydalanishda davlat nazoratini samarali tashkil etish, sohaga zamонавиу texnologiyalarni joriy etish, yer resurslarini hisobga olish ishlari yetarli darajada tashkil etilmasdan qolmoqda.

Shuningdek, mavjud 21,2 mln. gektar yaylov va pichanzorlardan samarali foydalanish, o'simliklarning turi va sonini ko'paytirish, hosildorligini oshirish, chorva mollarini tartibli almashlab boqishni yo'lga qo'yish, yaylov va pichanzorlar degradatsiyasining oldini olish maqsadida geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish yuzasidan tadbirlar umuman nazoratdan chetda qolib ketgan.

Mavzuning dolzarbliği. So'nggi 25-30 yilda yaylov va pichanzorlarning 35-40 foizi degradatsiyaga uchragan, o'simliklar turi va soni 20 foizga kamayib, hosildorlik 1,5-2 barobarga tushib ketgan.

Chorvachilikda mollarni yaylovlatib boqish eng arzon, samarali usuldir, chunki mollar ochiq havoda xohlagan o'tlarni tanlab yeydi. Bu jarayonda iqtisod qilish yo'li o't o'rilmaydi, maydalanmaydi, tashilmaydi, yoqilgi tejaladi. Ma'lumotlar bo'yicha yaylovlatishda chorvaning mahsuldarligi 25-40 % oshadi, tannarxi 20-30 % kamayadi.

O'rganish ob'ehti. Respublikamizda foydalanib kelinayotgan hozirgi barcha tabiiy yaylov va pichanzorlar maydoni 21,2 mln.ga bo'lib, shundan faqat qorako'lchilik hududlari foydalanadigan maydonlar 17,8 mln.gani tashkil qiladi. Shu maydonning 18696 ming suv bilan ta'minlangan.

Ilmiy elektron jurnali

Respublikada mavjud yaylovlar maydonini cho'l va adirlar 86,1% tog' 4,3% va alp yaylovlari 1,4% ni tashkil qiladi. Viloyatlar bo'y lab yaylovlar maydoni bir tekis emas. Chunonchi, Qoraqolpog'iston, Navoiy, Buxoro, Xorazm, Sirdaryo viloyatlarida asosan cho'l, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida barcha turdag'i yaylovlar uchraydi.

Tadqiqot natijalari. Yaylov va pichanzor turlari tuproq iqlim sharoitiga bog'liqidir. O'rta Osiyo mintaqasida keng tekislik, tekislik-tepalik, tog' oldi va tog'li hududlarni egallaydi. Keng maydon dasht mintaqasiga to'g'ri keladi. Bu mintaqada qumli, loyli, sho'rli va efemerli yaylovlar ajratiladi. Qumli yaylovlar (Qizilqum, Qoraqum, Barsuki) saksaul, juzgun, yantoq, yaltirbosh, astragal kabi o'simliklar uchraydi. O'rtacha hosildorligi 6-10 s\ga, hosildorlik pichan hisobida bo'ladi. Loyli yaylovlarda butalar, efemer o'simliklar, shuvoq uchraydi. O'rtacha hosildorligi 3-6 s\ga. Sho'rli yaylovlarda bir yillik va ko'p yillik sho'radoshlar uchraydi, hosildorligi 0,5-5,0 s\ga. Efemer yaylovlarda har-xil o'simliklar uchraydi. Hosildorligi 3-3,5 s\ga.

O'zbekistonda tog'li yaylovlar ham mavjud. Balandlikga qarab har xil turdag'i yaylovlar bo'ladi:
a) tog'-o'rmon yaylovlari. Bu mintaqada oqso'qta, ajriq bosh, qizil sebarga o'sadi. Hosildorligi 10-20 s\ga

b) tog' cho'l yaylovlari. Bu mintaqada qo'ng'irboshli va dukkanli o'tlar ko'p uchraydi. Hosildorligi 12s\ga

v) tog'-dasht yaylovlari - asosan qo'ng'irboshli o'tlar ko'p uchraydi. Hosildorligi 6 s\ga. g) subalp yaylovlari - yog'ingarchilik ko'payadi, o'tlar turlari ham har xil bo'ladi. Hosil 25 s\ga.

d) alp yaylovlari-bu 3200 - 4000 m. Yaylovlar hosil 8-14 s\gani tashkil qiladi.

O'zbekiston yaylovlari va pichanzorlarida quyidagi o'simlik guruhlari uchraydi:

Efemerli o'simliklar. Bu o'simliklarning o'suv davri qisqa bo'ladi. O'rtacha 30-50 kunda hosil beradi. Bu o'tzorlarda efemeroid va monokarpiklar ham ko'p uchraydi. Bahorda bu o'simliklarning 100 kg.da 80 ozuqa birligi bo'lishi mumkin. Efemer o'simliklarning orasida rang, qora osh, yaltirbosh, kattabosh, arpagon, qosmoldoq, no'xatak, chitit, donasho'r va boshqa o'simliklar uchraydi.

Yaltirbosh - qo'ng'irboshli ekinlar oilasiga mansub bir yillik o'simlikdir, bo'yi 15-40 sm, aprelda gullaydi va urug' beradi. Pichan tarkibida 17,5% protein, 3,6% moy, 45% AEM, 8,5% kul va 25,3 % klechatka(to'qima) mavjud. To'yimliligi 92,3 ozuqa birligiga teng.

Arpaxon qo'ng'irboshlilar oilasiga mansub bir yillik o'simlik, bo'yi 10-25 sm, may oyida urug'i pishadi. Ko'kati va pichani yaxshi yeyiladi.

No'xatak-dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik o'simlik, bo'yi 10-40 sm. Chorva mollari ko'kat va pichan xolida yaxshi yeydi, tarkibida 22,37% protein, 2,65 % moy, 49,8% AEM, 10,36% kul va 14,94% to'qimalar mavjud.

Yaylov o'simliklarning orasida buta va chala butalar - shuvoq, singren, cherkez, qorasaksovul, oq saksovul, izen, juzg'unlardir.

Qorasaksovul- sho'radoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, bo'yi 3-4 m, yaxshi sharoitlarda 5-6 m.gacha bo'ladi. Ildizi yaxshi rivojlanib tuproqning namli qatlamlarigacha yetadi, aprelning boshida ko'karadi, aprelning o'rtalarida gullaydi, sentabrda urug' yetiladi. Uning bir yillik novdalari sershiralni, bo'g'imli va yashil rangda bo'lib barg vazifasini o'taydi. Qorasaksovul ozuqasida 10-12% protein, 2,2,-2,7% moy, 21,2-38,6% kul, 39,3% AEM mavjud. Qorasaksovulning 100 kg pichanida bahorda 20, kuzda-46, qish mavsumida 37 ozuqa birligi mavjud.

Cherkez (Paleskiy sho'rasi) - sho'radoshlar oilasiga mansub, bo'yi 3-4m, yon shoxlarini uzunligi 1-1,5 m, uning bir yillik novdalari va urug'ini qo'y va echkilar bahor,kuz va qishda, tuyalar esa butun yil davomida yaxshi yeydi. Pichanida 16,5-22,9% protein, 2,0-2,4% moy, 38,3-43,1% AEM, 15,9-25,0% kul va 17,8-21,0% to'qima mavjud. Pichanida bahorda 25, yozda-45, kuzda 38,

qishda 33 ozuqa birligi bor. Cherkez qumli yaylovlар mahsuldorligini oshirishda, yaylov agrofitotsenozlari va ihotazorlar barpo etishda keng qo'llaniladi.

Yaylov va pichanzorlarda zaharli va zararli o'simliklar ham uchraydi. Zararli o'simliklar - bu mollarni mekanik jarohatlovchi yoki mahsulotni sifatiga salbiy tasir etuvchi o'simliklardir. Zaharli o'simliklar deganda bu chorva mollariga va inson uchun o'ta xavfli hisoblangan, tarkibida alkoloидлар, glyukozid va boshqa zaharli moddalar bo'lган o'simliklar tushuniladi. Zararli va zaharli o'simliklar butun o'suv davri davomida emas, balki ayrim davrlarida zaharli yoki zararli bo'lishi mumkin. Zararli o'simliklarda tikanlar, tukchalar bo'ladi.

Isiriq (adraspan) - tuyatovondoshlar oilasiga mansub, bo'yи 40sm. Aprelda ko'karadi, mayda gullaydi, iyunda urug'i pishadi. Ko'katini mollar yemaydi, qurigan novdalarini va urug'ini qishda qisman mollar yeydi. Novdalarida 1,5-3,5%, barglarida 2,2-4,9%, urug'ida 2,3-4,6% alkaloidlar (garmalin, garmin, vazitsin, peganin) mavjud. Isiriqning gullah davrida tayyorlangan pichani tarkibida 24,1% protein, 3,7% moy, 17,8% kul, 30,7% AEM va 18,1% to'qima mavjud.

Xulosa va takliflar: Yaylovlardan ko'p yillar mobaynida foydalaniladi, shuning uchun o'simlik turlari to'g'ri tanlanib, urug' ekish muddati va usullari ham ekin turiga qarab aniqlanishi lozim. Ekinlar turi tanlanganda avvalo shu tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklar turi tanlanadi. Dehqonchilikda ekiladigan madaniy ko'p yillik o'tlar ham qo'shilish mumkin.

Yaylovni hosildorligi gektaridan 6-8 ming ozuqa birligiga teng bo'lsa 0,25-0,35 ga yaylov bir bosh sigirni butun yaylovlatish davrida boqa oladi. Madaniy yaylovdan chiqqan ko'kat eng kam tannarxli bo'ladi.

Yaylovlarning relef, madaniy texnik va fitosanitar xolati, o'simlik turi va soni qaniqarli darajada bo'lsa, ularning hosilning oshirish maqsadida yuzani yaxshilash tadbirlari bajariladi - bundan tabiiy o'tzor saqlanib, buta va daraxtlardan tozalanadi DP-24, MTP - 13 mashinalar yordamida qurigan yeyilmagan o'simlik qoldiqlari yuzasida teksilanadi, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish uchun notekislik 20 sm dan oshmasligi lozim. Yaylovlarni madaniy texnik xolati yaxshilagandan keyin agrotexnik ishlari boshlanadi - bunda o'g'it solinadi, yer xaydaladi, o't aralashmasi ekiladi. Yaylov reja asosida 5 yil mobaynida yaxshilanib boriladi. Eng muhim o't aralashmasini to'g'ri tuzish, o'z vaqtida ekishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 aprel, 299-sonli qarori.
2. N.G.Andreev "Lugovoe i polevoe kormoproizvodstvo" - M.Kolos, 1984.
3. X.Atabaeva, Z.Umarov va boshq "Yem-xashak yetishtirish" - T. Mehnat, 1997, 151 b.
4. В.Далакян, Ш.Рахманова -“Корма Узбекистана” -Т.Мехнат, 1986, 259 с.
5. Справочник по кормопроизводству , 3, 5, 9.
6. Abdulkarimov D. va boshqalar. "Dehqonchilik asoslari va yem-xashak yetishtirish" - T.Mehnat, 1987.
7. Xudoyberdiev F.Sh. "Yaylovlarni yaxshilash, yangi yaylov barpo etish va yaylovlardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy maqola. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2019-yil 17-20 b.
8. Khudoyberdiyev Feruz Shamshodovich, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). Innovative approach to pasture management and productivity improvement. Academicia Globe: Inderscience Research, 2(05), 491–494.
9. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Measures to prevent degradation of pastoral lands. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(3).

10. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtarovich, M. K. (2021). Achieve Effective Results Through Pasture Management. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 3, 9-12.
11. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Development of Effective Methods for the Use of Pasture Land" International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology, 7(3).
12. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Measures to Prevent Degradation of Pastural Lands" International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology, 7(3).
13. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Development of effective methods for the use of pastureland. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(3).
14. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». Вестник Хорезмской Академии Мамуна, 17-20.
15. Худойбердиев, Ф. Ш., Шарипова, Ф. К., Бобожонов, С. У., & Мухамадов, К. М. (2014). Разработка эффективных методов использования пастбищных земель. The Way of Science, 69.
16. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). Innovative approach to rational use of pastures and increasing productivity. In " Online-conferences" platform (pp. 76-78).
17. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). The importance of the cluster system today. International Engineering Journal For Research & Development, 6, 3-3.
18. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. Землеустройство, кадастр и мониторинг земель, (10), 24-27.
19. Sh, F. (2019). Khudoyberdiyev. Development of methods of pasture improvement, creation of new pastures and effective use of pastures. Bulletin of the Khorezm Academy of Sciences, 2-15.
20. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, June). The importance of pasture lands in the development of the livestock sector in uzbekistan. in " online-conferences" platform (pp. 164-166).
21. Худойбердиев Ф. Ш. Меры предотвращения деградации пастбищных земель //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 331-333.
22. Xudoyberdiyev, F. S. (2020). Buxoro viloyatida yaylovlardan foydalanishning bugungi holati. Студенческий вестник, (24-6), 45-46.
23. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Яйловларни яхшилаш, янги яйлов барпо этиш ва яйловлардан самарали фойдаланиш усулларини ишлаб чиқиши" мавзусидаги илмий мақола. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 17-20
24. Khudoyberdiev, F. S., Sharipova, F. K., Bobozhonov, S. U., & Mukhamadov, K. M. (2014). Development of effective methods of pasture land use. The Way of Science, 70.